O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

_____

B.A.Xolikov

2024-yil “____” _____

Ro‘yxatga olindi: № BD-60110700-1.01
2024 yil “____” _____

UMUMIY PSIXOLOGIYA
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 -Ta’lim

Ta’lim sohasi: 110 000 -Ta’lim

Ta’lim yo‘nalishi: 60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti

Samarqand-2024

Fan/modul kodi PSY11210	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 1-2	ECTS- Kreditlar 10
Fan/modul turi Majburiy	**Ta’lim tili** O‘zbek/rus	**Haftadagi dars soatlari** 3/5	

1.	Fanning nomi	Auditoriya Mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Umumiy psixologiya	126	174	300

2.

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad– talabalarga psixologiya fanining rivojlanishi, psixologiya fanining qonuniyatlari, psixologiyaning Sharq va G‘arb olimlari tomonidan o‘rganilishi, jahon psixologiya ilmining zamonaviy yutuqlari, psixologiyaning o‘rganilishi, psixologiyaning prinsiplari, psixologiya fanining tarmoqlari, bugungi kun ta’lim jarayonidagi psixologik muammolar, psixologik xizmat ko‘rsatish masalalari, bo‘lajak o‘qituvchilarning psixologik bilimlarini shakllantirish, shaxsda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning shaxs ijtimoiy xulq-atvoriga qay tarzda ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini tushuntiruvchi mexanizmlar to‘g‘risida bilim berishdan iboratdir.

Fanning vazifasi - psixologiyaga oid nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, shaxsda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning shaxs ijtimoiy xulq-atvoriga qay tarzda ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini tushuntiruvchi mexanizmlar to‘g‘risida bilimlar shakllantirish, ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, psixologik qonuniyatlarining mazmun-mohiyatini bilish, o‘rganilgan bilimlarni ta’lim va tarbiya jarayonlariga to‘g‘ri tatbiq eta olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlar)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-modul

1–mavzu: Psixologiya tarixi. Psixologiya fani predmeti va vazifalar.

Psixologiya fani haqida tushuncha. Psixologiya fanining predmeti va asosiy vazifalari.Psixikaning namoyon bo‘lishi. Psixologiyaning o‘rganilish bosqichlari (bixeviorizm, neobixeviorizm, neofreydizm). Psixologiya fanining, fanlar bilan o‘zaro bog’liqligi. Psixologiya fanining tarmoqlari. Xorijiy tillarni o‘qitishning psixologik jihatlari, xorijiy tilni o’rganishning psixologik prinsiplari, bilish jarayonlarining o‘ziga xosligi, insonda xorijiy tillardagi matnni o‘qish layoqati. Axborot texnologiyalar asrida inson psixologiyasining rivoji.

2–mavzu: Psixologiya fanining ilmiy tadqiqot metodlari.

Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlari. B.G.Ananyevning tadqiqot metodlari klassifikasiyasi, kuzatish metodi va uning turlari, eksperiment metodi, so‘rov metodi va uning turlari, faoliyat mahsulini o‘rganish metodi, test metodi. Proyektiv metodikalarning ilmiy tadqiqot jarayonidagi ahamiyatlilik darajalari haqida.

3–mavzu: Psixika va ongning taraqqiyoti.

Psixikaning felogenetik taraqqiyoti. Odam psixikasining paydo bo‘lishi va

taraqqiyoti. Ong strukturasi va uning asosiy psixologik xarakteristikasi. Yuksak psixik funksiyalarning tarkib topishi va ularning tuzilishi, Psixikaning substrati – tanadir. Yuksak psixik funksiyalarning substrati – miya. Psixikaning vazifasi. Ong va uning shakllari. Ong tushunish sifatida; refleksiyaga nisbatan qobiliyatlilik, o‘z-o‘zini kuzatish, o‘zligini anglash. Ongsizlikning onglilikdan farqi, ust onglilik holatlari, ong tuzilmasi, ongning tarkibi**,** aks ettiruvchanligi, ijodiylikni vujudga keltiruvchanligi.

4–Mavzu: Faoliyatning psixologik talqini. Shaxs haqida umumiy tushuncha.

Faoliyat haqida tushuncha. Faoliyatning psixologik talqini. Faoliyatning turlari. Faoliyatning interiorizasiyasi va eksteriorizasiyasi. O‘yin faoliyatining o‘ziga xos jihatlari. O‘qish faoliyati, uning komponentlari va psixologik xususiyatlari. Mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlari. Faoliyatda muvafaqqiyatga erishish. Faoliyatning shaxs taraqqiyotidagi roli. Faoliyat mexanizmlari, motivlari, harakat, maqsad, mnemik faoliyat, fikrlash faoliyati, fahm - farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni yechishga qaratilgan faoliyat. A.N.Leontev bo‘yicha faoliyat tuzilishi. Faoliyat va motivlar. Shaxs haqida tushuncha, odam-inson-individuallik tushunchalari, shaxs ijtimoiy ta’sirlar maxsuli sifatida: ijtimoiy normalar, sanksiyalar. Shaxs nazariyalari endopsixika va ekzopsixika. Markaziy Osiyo mutaffakirlari ijodida shaxs kamoloti. Chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari. Rus va o‘zbek psixolog olimlarning shaxs haqidagi ilmiy qarashlari. Biogenetik va sosiogenetik nazariyalar. «Men»-obrazi va o‘z-o‘ziga baho. Shaxsga xos bo‘lgan obyektiv sifatlar, onglilik, javobgarlikni his etish, o‘z qadrini bilish.

5–mavzu: Bilish jarayonlari. Sezgi va idrokning psixologik mohiyati.

Sezgi psixik jarayon sifatida. Sezgining psixofiziologik asoslari. Sezgining tasnifi, sezgi klassifikasiyalari, qonuniyatlari, chet el psixologiyasida sezgi nazariyalari. Sezgi kognitiv jarayonning boshlang‘ich nuqtasi (R.Solso). Analizatorlar. Sezgining reseptor va reflektor nazariyasi. Idrokning fiziologik asoslari. Idrok turlari. Idrokning asosiy sifatlari. Idrokning individual xususiyatlari. Idrokning asosiy xususiyatlari uning predmetliligi, yaxlitligi, strukturaliligi, doimiyligi (konstantligi) va anglashilganligi. Idrokning yangi qirralari.

6–mavzu: Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning asosiy xususiyatlari.

Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning asosiy xususiyatlari. Diqqatning nerv-fiziologik asoslari. Diqqat turlari. Diqqatning ko‘chuvchanligi, bo‘linishi, ko‘lami, kuchi, barqarorligi va bo‘linishi. Diqqatning rivojlanishi.

7-mavzu: Xotiraning psixik jarayon sifatida o’rganilishi.

Xotira va uning psixo-fiziologik mexanizmlari. Xotira jarayonlari va uning turlari. Xotiraning neyrofiziologik va bioximik nazariyalari. Xotirani mustahkamlash qonuniyatlari. Assosiasiya va uning turlari. Xotira murakkab psixik jarayon ekanligi, xorij psixologiyasida xotira borasidagi psixologik fikrlar.

8-mavzu: Xayol va tasavvur haqida tushuncha.

Hayol haqida tushuncha. Hayolning fiziologik asoslari. Hayol turlari va

tavsifi. Tasavvur va uning talaba faoliyatidagi roli. Hayol va tasavvurning o‘zaro aloqadorligi. Xorij psixolog olimlarining hayol to‘g‘risidagi fikrlari.

9-mavzu: Tafakkurning bilish jarayoni sifatidagi mohiyati.

Tafakkurning bilish jarayoni sifatidagi mohiyati va shaxs shakllanishida tutgan o‘rni. Tafakkurning nerv-fiziologik asosi. Tafakkur operasiyalari. Tafakkurning mantiqiy shakllari va turlari. Tafakkur sifatlarini inson intellektual taraqqiyotidagi o‘rni.

10-mavzu: Nutq to‘g‘risida umumiy tushuncha. Muloqot va uning inson hayotidagi o‘rni.

Nutq to‘g‘risida umumiy tushuncha. Tilning asosiy funksiyalari. Nutq faoliyatining fiziologik mexanizmlari. Nutq rivojlanishi davrlari va xususiyatlari. Nutq vujudga kelishining nazariyalari. Nutqning anatomik tasviri. Nutqni idrok qilish nazariyasi. Nutq turlari (og‘zaki nutq, yozma nutq, monologik, diologik, poliologik nutq, verbal, noverbal, paralingvistik ta’sir vositalari). Muloqot haqida umumiy tushuncha. Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Muloqot haqida nazariyalar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari. Polshalik psixolog E.Melibruda qarashlari. Muloqot - hamkorlikda faoliyat ehtiyoji bilan taqazolangan aloqa o‘rnatish va uni rivojlantirish jarayoni ekanligi.

11-mavzu: Shaxs ustanovkasi, e’tiqodi va dunyoqarashi. 15-mavzu: Motiv va motivatsiya haqida tushuncha

Shaxsning e’tiqodi. Dunyoqarashning tarkib topishi va rivojlanishi. Shaxsning ustanovkasi yoki anglanilmagan mayllari. Shaxsning ustanovkasi yoki anglanilmagan mayllari. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari. Rus olimi V.A.Yadovning dispozision konsepsiyasi, unda ustanovkalarning to‘rt bosqich va to‘rt tizimli tavsifi. E’diqodning dunyoqarashga ta’sir darajalari. Motivasiya haqida umumiy tushuncha. Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan berilgan ta’riflar. Motivasiya va motivlarning nazariy muammolari. Motiv muammosi va uning yechimiga doir muloxazalar. Shaxsning shakllanishida motivasiyaning roli. Ilk bolalik yosh davrida xulq-atvor motivlari. O‘quv faoliyati motivlari. Motiv klassifikasiyasi. Ichki va tashqi motiv. Muvaffaqiyatsizlikdan qochuvchi va muvaffaqiyatga eltuvchi motivatsiyalar.

12-mavzu: Shaxsning hissiy irodaviy jabhalari. Emotsiya va hissiyot. Iroda haqida umumiy tushuncha

Hissiyot to‘g‘risida umumiy tushuncha. Emotsiya, hissiyotning impressiv tomoni, emosional harakatlarning ekspressiv tomoni, dinamik stereotip, ambivalentlik. Hissiyot va emotsional holatlarning fiziologik asoslari. Odam va hayvon emotsiyalari. Hissiy kechinmalarning shakllari. Shaxs fidoyilik tuyg‘usini psixologik baholash. Vatanparvarlik his-tuyg‘usini baholash mezonlari. Iroda haqida umumiy tushuncha. Irodaning nerv-fiziologik asoslari. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari. Iroda borasidagi nazariyalar. Irodaviy akt va uning tuzilishi. Maqsad, tilak-havaslar, harakat motivlari va motivlar kurashi, qarorga kelish, qarorni ijro etish, irodaviy zo‘r berish. Shaxsning irodaviy sifatlari, irodani tarbiyalash, irodaning individual xususiyatlari

13-mavzu: Ehtiyoj va qiziqishlarning psixologik tasnifi

Ehtiyoj to‘g‘risida umumiy tushuncha. Ehtiyojlar faollikning manbai sifatida. Ehtiyojlarning turlari. Qiziqishning psixologik tasnifi. Psixologiyada qiziqishning turlari va darajalari. Qiziqishning mazmun jihatidan hamda maqsad jihatidan farqlari. Ta’lim jarayoniga ijobiy qiziqishlarni hosil qilish - ta’lim samaradorligi omili sifatida.

14-mavzu: Shaxsning psixologik xususiyatlari. Temperament.

Temperament haqida tushuncha. Qadimgi yunon olimi Gippokrat ta’limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o‘zaro bir-biridan tafovutlanishi. Oliy nerv faoliyati tipi va temperament. I.P.Pavlovning temperament shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog‘liqligi haqidagi ta’limoti.

Xarakterning hosil bo‘lishida nizoli vaziyatlarning tutgan o‘rni. Shaxslararo munosabatlarda shaxs xarakter xususiyatlarining shakllanishi va rivojlanishi. Oilaviy munosabatlarda shaxs xarakter xususiyatlarining o‘rni.

15-mavzu: Shaxsning psixologik xususiyatlari. Xarakter

Xarakterning hosil bo’lishida nizoli vaziyatlarning tutgan o’rni. Shaxslararo munosabatlarda shaxs xarakter xususiyatlarining shakllanishi va rivojlanishi. Oilaviy munosabatlarda shaxs xarakter xususiyatlarining o’rni.

16-Mavzu: Qobiliyat, iste’dod, geniylik.

Qobiliyat haqida tushuncha. Qobiliyatning sifat va miqdor tavsifi. Qobiliyatlar tuzilishi. Talantning paydo bo’lishi va tuzilishi. Qobiliyat va talantning tabiiy shartlari. Qobiliyat nazariyalari talqini. Qobiliyatlarning rivojlanishi. Qobiliyat va irsiyat. Qobiliyat va kasb tanlash. Ta’lim jarayonida iqtidorli va qobiliyatli o’quvchilarni aniqlash hamda ular bilan ishlash muammolari. Chet tillarini o’rganishda qobiliyatning tutgan o’rni.

Yosh davrlari va pedagogik psixologiya

II-modul

1-mavzu: Yosh davrlari va pedagogik, psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining predmeti, vazifalari, yosh davrlari va pedagogik psixologiyasi faniga oid ilmiy bilimlar-ning vujudga kelish tarixi, yosh va pedagogik psixologiyasi fanining asosiy sohalari, yosh davrlari psixologiyasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

2-mavzu: Yosh davrlari va pedagogik, psixologiya fanining va ilmiy tadqiqot metodlari.

Yosh davrlari va pedagogik, psixologiya fanining ilmiy tadqiqot metodlari, yosh va pedagogik psixologiyasi fanining tadqiqot sohasi va muammolari.

Sotsiometrik metod, tajriba sinov, test, proektiv metodlari haqida tushuncha.

3-mavzu: Yosh davrlarini tabaqalash nazariyalari va yosh inqirozlari.

Chaqaloqlik davrining psixologik xususiyatlari (tug‘ma reflekslar, “jonlanish”), go‘dak va muloqot, bir yosh inqirozi haqida, ilk bolalik davrida psixik rivojla-nish xususiyatlari, ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish

xususiyatlari. Ilk bolalik davrida o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi. Bolaning psixik o‘sishida o‘yinning ahamiyati.

4-mavzu: Chaqaloqlik va ilk bolalik davrining psixologik xususiyatlari

Chaqaloqlik, analizator, jonlanish kompleksi, his-tuyg‘uning o‘sishi, muloqot, o‘yin faoliyati, go‘daklik (chaqaloqlik) davri jismoniy jihat. Bolaning tug‘ilgandan keyingi normal taraqqiyoti, bolaning tug‘ilgunga qadar bo‘lgan taraqqiyoti. Bolaning tug‘ilgandan keyin bir yoshgacha bo‘lgan davri nisbatan kam harakat va «nutqsiz» taraqqiyot davridir. Bu davrda bolaning o‘sishi va taraqqiyoti oila doirasida yuzaga kelish omillari.

5-mavzu: Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari

Maktabgacha yosh davrida psixofiziologik taraqqiyotning umumiy tavsifi. O‘yin - maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati sifatida (o‘yin faoliyatining mohiyati, turlari, bilish jarayonlari va shaxs taraqiyotiga ta’sir ko’rsatish mexanizmlari, o‘yinchoqning bola psixik rivojlanishiga ta’siri muammosi). Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlari va nutqning rivojlanishiga xos xususiyatlar. Maktabgacha yosh davrida emosional-irodaviy sifatlarning rivojlanish xususiyatlari. Maktabgacha yosh davrida ijtimoiy emotsiyalarning shakllanishi. Maktabgacha yosh davrida motivasion sohadagi o‘zgarishlar va shaxsning «birinchi tug‘ilishi» (A.N.Leontev). 7 yosh inqirozi, uning sabablari va alomatlari. Maktabga psixologik tayyorlik muammosi.

6-mavzu: Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. Kichik maktab yoshidagi bolaning maktabga moslashishi muammosi. Kichik maktab yoshi davrida kognitiv - affektiv sohalardagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida motivasion sohadagi rivojlanish xususiyatlari (o‘quv faoliyati, shaxslararo munosabatlarning motivasion asoslari). Pedagogik baho va kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish aloqasining psixologik mexanizmlari. Kichik maktab yoshida bola shaxsining rivojlanish xususiyatlari.

7-mavzu: O‘smirlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

O‘smirlik davridagi psixik rivojlanishning umumiy tavsifi (o‘smirlikda jismoniy o‘sish xususiyatlari, jinsiy yetilish jarayoni, uning psixik rivojlanishga ta’siri haqida umumiy tushuncha). O‘smirlik davri inqirozi va uning psixologik, psixofiziologik sabablari. O‘smirlik davrida intellektual va emosional rivojlanish xususiyatlari. O‘smirlik davrida motivasion sohadagi rivojlanish xususiyatlari (tengdoshlar bilan muloqot qilish motivasiyasi, o‘quv faoliyati motivasiyasi, jinoiy xulq-atvor motivlari).

8-mavzu: O‘smirlik davridagi psixologik muammolar.

O‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga baho berish tizimining rivojlanish xususiyatlari. Fobiyalar, nomofobiya, emansipasiya, anoreksiya, bulimiya, bulling, kiberbulling, o‘smirlik davrida xarakter aksentuasiyasi muammosi, internetga tebelik kabi psixologik muammolar haqida ilmiy ma’lumotlar. Ularning tavsiya etilayotgan yechimlari va yondashuvlar. Suidsidal hulqni yuzaga kelishi, namoyon bo‘lishi va muammoni yechish yo‘llari. Tarbiyasi qiyin bolalar haqida.

9-mavzu: Ilk o‘spirinlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

O‘spirinlik davrining psixologik xususiyatlari.

Ilk o‘spirinlik davri psixologiyasiga umumiy tavsif (psixofiziologik rivojlanish xususiyatlari, o‘quv faoliyati xususiyatlari, ijtimoiy xulq-atvordagi umumiy o‘zgarishlar). Ilk o‘spirinlik davrida intellektual va emosional rivojlanish xusu-siyatlari. Ilk o‘spirinlik davrida do‘stlashish muammosining psixologik xususiyatlari. Ilk o‘spirinlik davrida muhabbat. Ilk o‘spirinlik davrida o‘zini-o‘zi anglashning rivojlanishi (o‘zini-o‘zi baholash, hurmat qilish, shaxsiy va ijtimoiy identifikasiya muammolari). Ilk o‘spirinlik davrida o‘quv-kasbiy faoliyatning yetakchi faoliyatga aylanishi.

10-mavzu: Talabalar psixologiyasi.

Talabalarning psixologik xususiyatlari. Talabalar o‘quv faoliyatining xusu-siyatlari. Ta’limdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish. Talaba shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tekshirish. O‘qituvchi va talabaning hamkorligi-ta’lim samaradorligining muhim omili sifatida. Talabalar hayoti va faoliyatini o‘zgartiruvchi asosiy omillar.Talaba e’tiqodi, dunyoqarashi, o‘zini o‘zi nazorat qilishi.

11-mavzu: Yetuklik davrining psixologik xususiyatlari.

Yoshlik davri va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Yetuklik davrining birinchi bosqichida shaxsning psixologik xususiyatlari. Yetuklik davrining ikkinchi bosqichida shaxsning psixologik xususiyatlari. Yetuklik darida shaxsda “Men” obrazining nomoyon bo‘lishi. Retpospektiv men, aktual men, ideal men tushsunchalari haqida.

12-mavzu: Psixogerontologiya - keksalik psixologiyasi.

Psixogerontologiya haqida umumiy tushuncha Biologik keksayish. Keksalik davrida shaxs psixologiyasi. Keksalik davridagi shaxsning psixologik xususiyatlari. Uzoq umr ko’ruvchilarning psixologik xususiyatlari, qarilik va keksalik davrlari haqida nazariyalar. Davidovskiy nazariyasi. Tibetlilklarning uzoq umr ko‘rish bo‘yicha tavsiyalari.

13-mavzu: Pedagogik faoliyat psixologiyasi.

Pedagogik jamoadagi psixologik muhitning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar. O‘quv faoliyatining psixologik mohiyati. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari. Pedagogik qobiliyatlar. O‘qituvchi professiogrammasi. O‘qituvchining o‘z malakasini oshirib borishining psixologik muammolari.

14-mavzu: Ta’lim psixologiyasi.

O‘quv faoliyatining psixologik mohiyati. O‘qish motivlari. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari. Ta’limning noan’anaviy usullari. Mustaqil tafakkurni rivojlantirish. Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.O‘quv faoliyatini boshqarish.

15.Tarbiya psixologiyasi.

Xulq-atvor vaqt odatni shakllantirish shaxsni tarbiyalashning asosiy yo‘nalishi sifatida. Shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar, psixologik shart-sharoitlar. “Tarbiyasi qiyin” bolalar psixologiyasi. Tarbiya samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlar.

III. Seminar mashg‘ulotlari buyicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

I-modul.

1-mavzu: Psixologiya tarixi. Psixologiya fani predmeti va vazifalar.

2 –mavzu: Psixologiya fanining ilmiy tadqiqot metodlari.

3 –mavzu: Psixika va ongning taraqqiyoti.

4 –mavzu: Faoliyatning psixologik talqini. Shaxs haqida umumiy tushuncha.

5–mavzu: Bilish jarayonlari. Sezgi va idrokning psixologik mohiyati.

6-mavzu: Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning asosiy xususiyatlari.

7-mavzu: Xotiraning psixik jarayon sifatida o‘rganilishi.

8-mavzu: Xayol va tasavvur haqida tushuncha.

9-mavzu: Tafakkur bilish jarayoni sifatidagi mohiyati.Tafakkur sifatlarini inson intellektual taraqqiyotidagi o’rni.

10-mavzu: Nutq to‘g‘risida umumiy tushuncha. Muloqotning inson hayotidagi o‘rni.

11-mavzu: Shaxs ustanovkasi, e’tiqodi va dunyoqarashi. Motiv va motivatsiya haqida tushuincha.

12-mavzu: Shaxsning hissiy irodaviy jabhalari. Emotsiya va hissiyot. Iroda.

13-mavzu: Ehtiyoj va qiziqishlarning psixologik tasnifi.

14-mavzu: Shaxsning psixologik xususiyatlari. Temperament.

15-mavzu: Shaxsning psixologik xususiyatlari. Xarakter

16-mavzu: Inson qobiliyatining rivojlanishi o‘ziga xosligi.

II-modul

1-mavzu:Yosh davrlari va pedagogik, psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

2-mavzu:Yosh davrlari va pedagogik, psixologiya fanining va ilmiy tadqiqot metodlari.

3-mavzu: Yosh davrlariini tabaqalash nazariyalari va yosh inqirozlari.

4-mavzu: Chaqaloqlik va ilk bolalik davrining psixologik xususiyatlari

5-mavzu: Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari

6-mavzu: Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

7-mavzu: O‘smirlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

8-mavzu: O‘smirlik davridagi psixologik muammolar.

9-mavzu: Ilk o‘spirinlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

10-mavzu: O‘spirinlik davrining o‘ziga xos xususiyatlari.

11-mavzu: Talabalar psixologiyasi.

12-mavzu: Yetuklik davrining psixologik xususiyatlari.

13-mavzu: Psixogerontologiya - keksalik psixologiyasi.

14-mavzu: Pedagogik faoliyat psixologiyasi.

15-mavzu: Ta’lim psixologiyasi.

16-mavzu: Tarbiya psixologiyasi.

Seminar mashg‘ulotlari multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi

maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

I-modul

1. Psixologiya fanining taraqqiyot bosqichlari.
2. Inson ruhiy holatini o‘rganishda proyektiv metodlarning o‘rni.
3. Odam psixikasining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti. Ong turlarining psixologik tavsifi.
4. Talabada o‘qish faoliyati, uning komponentlari va psixologik xususiyatlari.
5. Shaxsda o‘z-o‘zini anglash psixologik muammo sifatida
6. Sezgining reseptor va reflektor nazariyasi haqida. Sezgi analizatorlari
7. Diqqatni rivojlantiruvchi psixologik mashg‘ulotlar
8. Xotirani rivojlantiruvchi psixologik mashg‘ulotlar
9. Talabalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda hayol jarayonining ahamiyatli ekanligi.
10. Tafakkur operatsiyalari va ularning tasniflari.
11. Tafakkur jarayonining talaba intellektual taraqqiyotidagi o‘rni.
12. Nutqni rivojlantiruvchi psixologik mashg‘ulotlar
13. Talabaning ta’lim faoliyatida ehtiyojlar va qiziqishlar - faollikning manbai sifatida.
14. Insonni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishda motiv va motivatsiyaning ahamiyati.
15. Shaxsdagi hissiy-ruhiy emotsional holatlar.
16. Stress va stressni bartataf etuvchi psixologik mashg‘ulotlar
17. Iroda va irodani mustahkamlovchi psixologik mashg‘ulotlar
18. Temperament haqida tushuncha.
19. Temperament tipiga mos juft tanlash - oilaviy munosabatlar mustahkamligi omili sifatida.
20. Xarakter aksentuatsiyasi. Muloqot uslublarini baholashda aksentuatsiyaning ma’lum tiplari. (K. Leongard bo‘yicha)
21. Qobiliyat, iste’dod va talant kabi psixologik xususiyatlar talaba shaxsini nomoyon etuvchi muhim omil sifatida.

II-modul

1. Yosh davrlar psixologiya fanining o’rganilishi.
2. Yosh va pedagogik psixologiyasi fanining tadqiqot sohasi va muammolari.
3. Chaqaloqlik davrining psixologik xususiyatlari (tug’ma reflekslar)
4. Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlari.
5. Kichik maktab yoshidagi bolaning maktabga moslashishi muammosi.
6. Fobiyalarning yuzaga kelishi, fobiya turlari,
7. O‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga baho berish tizimining rivojlanish xususiyatlari.
8. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashning psixologik yechimlari.
9. Ilk o‘spirinlik davrida intellektual va emosional rivojlanish xususiyatlari.

	10.Talaba e’tiqodi, dunyoqarashi, o’zini o’zi nazorat qilishi. 11.Yetuklik davrida, yosh xususiyatlari, yosh yigit va qizlar davri. 12.Keksalik davrida shaxs psixologiyasi. 13.O’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi o’zaro munosabatlar. 14.Ta’limning noan’anaviy usullari. 15.Shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar, psixologik shart-sharoitlar.
3.	**V. Fan o’qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: - psixologiya fanining asosiy tushuncha va terminlarini bilishi, farqlashi va tushuntira olishi lozim. Jumladan, psixik jarayonlar, psixik holatlar, psixologik xususiyatlar haqidagi bilimlarni egallashi ularni ***tavsiflay olishi shart;*** - psixologiya fanining mazmuni, mohiyati, psixik taraqqiyot jarayoni, psixik rivojlanishga ta’sir ko’rsatish mexanizmlari va qonuniyatlarini, psixik rivojlanishning ***asosiy xususiyatlarini bilishi va ulardan foydalana olishi;*** - talaba shaxsdagi bilish jarayonlar va ruhiy holatlarning yuzaga kelish mexanizmlarini, qonuniyatlarini bilishi, shaxsning tashqi omillar ta’siriga berilishiga doir bilim va ***ko‘nikmalariga ega bo’lishi kerak.*** - axborotlar tezligini anglashi, o‘z-o‘zini boshqara olishi, o‘zaro ta’sir etish va hamkorlikda ishlashni bilishi va ulardan foydalana olishi psixologiya faniga oid adabiyotlar bilan ishlash ***ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.***
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • Ma’ruzalar; • Interfaol ta’lim metodlari. • grafik organayzer va jadvallar; • Bahs-munozara, davra suhbatlari; • keys-stadilar (amaliy muammoli vaziyatli keyslar); • kichik guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni namoyish qilish; • psixologik treninglar;
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Psixologiya faniga tegishli fenomenlarni bilish, mazmun va mohiyatini ochib bera olish, psixologiya fanining prinsiplari (qonuniyatlari)ni bilish, mazkur kursda olingan nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlarga to‘g‘ri tatbiq eta olish, mustaqil mushohada yuritish, dars jarayonlarida faol ishtirok etish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni belgilangan muddatlarda bajarish, mustaqil ta’lim mavzusi bo‘yicha adabiyotlardan ma’lumot yig‘ish, o‘rganish, tahlil qilish va taqdim etish, yakuniy nazorat bo‘yicha test topshiriqlarini

6.	**IX. Asosiy adabiyotlar** 1. David G. Mayers. Psychology.Ninth edition. USA , Worth Publishers. 2010. - 910 p. 2. G‘oziyev. E.Umumiy psixologiya. Darslik. -T:. “Universitet”, 2010, - 163 b 3. G‘oziyev. E.Ontogenez psixologiya. Monografiya. -T:.“Noshir”,2010, - 360 b 4. Ivanov F.I., Zufarova M.E. Psixologiya. Darslik.-T:. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2014 . – 481 b. 5. Saidov.A.I. Psixologiya. Darslik.– S:. “Samarqand davlat chet tillar instituti”, 2023.-333 b. 6. Umarov. B.M. Psixologiya. Darslik. –T:.“Voris-nashriyot”, 2012. – 272 b. 7. Xolnazarova M.X, Muxliboyev. M.Q. Yosh va pedagogik psixologiya. /“Fan va texnologiya” nashriyoti, T:, 2014 -265 b 8. Shamshetova. A.K, Melibayeva. R.N, Usmanova. X.E, Haydarov. I.O Umumiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – T:.“Barkamol fayz media”,2018 -272 b. **Qo‘shimcha adabiyotlar** 9.Beknazarova. L. Maxmudova. M, Shodiyev. B. Ijtimoiy-psixologik trening. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. – T:. “Tafakkur qanoti”, 2016. – 97 b. 10. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Darslik. –T:. “Sharq”,2007.- 163 b 11. Masara Ibuka. (N.H.Nurmuhammad tarjimasi.) Uchdan keyin kech.–T:. “Akademnashr”, 2019. – 258 b. 12. Mardiyeva Sh.A, Saydullayev. J.Ya. O’smirlik davridagi deviant xulq-atvor (me’yordan og’ish) ni pedagogik va psixologik korreksiyalash. Uslubiy qo’llanma. -S:. “Samarqand davlat chet tillar instituti”, 2021 -98 b 13. ROSIE M. SPIELMAN.Psychology. © 2017 Rice University 14.Yadgarova.O.I.Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional-kommunikativ kompe-tentligini rivojlantirishda psixologik treninglardan foydalanish imkoniyat-lari. Monografiya. – S:. “Samarqand davlat chet tillar instituiti” , 2023 – 221 b. 15.Yadgarova.O.I.Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini professional-kommunikativ faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari. Uslubiy qo‘llanma. - S:. “Samarqand davlat chet tillar instituiti” , 2021 – 130 b. 16.Yadgarova.O.I. Hissiy va ruhiy salomatlikni oshiruvchi psixologik treninglar. (Pedagog va psixologlar uchun) Uslubiy qo‘llanma. - S:. “Samarqand davlat chet tillar instituiti” , 2023 – 126 b. 17.Yuldashev S.R. Ijtimoiy psixologiyadan masalalar to‘plami. T.2012. 223. B **Axborot manbaalari** 18 www.psychology.net.ru 19. www.psycho.all.ru 20. www.psychology.net.ru

	21. www.koob.ru 22.www.googlescolar 23. www.psychologies.ru
7.	**Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024-yil "___" _____ dagi "__"-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.**
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: O.I.Yadgarova - SamDChTI, "Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari" kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)
9.	**Taqrizchilar:** Sh.A.Mardiyeva –SamDChTI, "Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari" kafedrasi katta o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori, (PhD) A.M. Shonazarov - Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Psixologiya" kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).